

## INKLYUZIV TA'LIMNING TA'LIMDAGI MUHIM VAZIFALARI

*Qutliyeva Muhayyo Polvonnazarovna*

*Xiva tumani 8- sonli maktab amaliyotchi psixologi*

**Annotatsiya:** *Inklyuzivlik-inglizcha so'z bo'lib, inklusif- qo'shish, birlashtirish ma'nolarini anglatadi. Mazkur atama alohida ehtiyojga ega bo'lgan o'quvchilarni umumta'lim maktablarida sog'lom bolalar bilan qo'shib birgalikda o'qitish jarayonini ifodalaydi.*

**Kalit so'zlar:** *inklusif, tamoyil, layoqat, emotsional-irodaviy, takomillashtirish, ijtimoiy muhit, ta'limga muhtoj*

### KIRISH

Inklyuziv ta'lim – o'quvchilarning imkoniyatlari, individual-psixologik, jismoniy nuqson va o'zlashtirish xususiyatlarini hisobga olgan holda tashkil etiladigan ta'lim jarayonidir. Shuningdek, inkluziv ta'lim davlat siyosati bo'lib, nogiron va sog'lom bolalar o'rtasidagi to'siqlarni bartaraf etish, inklyuziv ta'limga muhtoj bolalarni rivojlanishidagi nuqsonlari yoki iqtisodiy qiyinchiliklaridan qat'i nazar, ijtimoiy hayotga moslashtirishga yo'naltirilgan umumta'lim jarayoniga qo'shishni ifodalovchi ta'lim tizimidir. Inklyuziv ta'lim jismoniy va psixik imkoniyatlari cheklangan o'quvchilarni sog'lom o'quvchilar bilan birgalikda o'qitishni anglatadi. Inklyuziv ta'lim bir qator muhim tamoyillarga tayanilgan holda amalga oshiriladi.

Jumladan, ➤ inson qadri uning layoqatlari va yutuqlariga bog'liq emasligi prinsipi;

- har bir shaxsning his qilish va o'ylash layoqatiga egaligi prinsipi;
- har bir shaxsning muloqot qilish va tinglash huquqiga egaligi prinsipi;
- har bir shaxsning bir-biriga kerakligi prinsipi;
- shaxsga yo'naltirilgan ta'lim jarayonining aniq hamkorlik asosida amalga oshirilishi prinsipi;
- har bir o'quvchining o'z tengdoshlarining qo'llab-quvvatlovi va do'stona munosabatlariga ehtiyojmandligi prinsipi;
- turli-tumanlik o'quvchi hayotining barcha jabhalarini rivojlantirishni ta'minlashi zarurligi prinsipi kabilar.

**Inklyuziv ta'limning maqsadi** - alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan o'quvchilar uchun maktabda maxsus vosita va metodlarni qo'llash orqali maxsus pedagoglarni jalb etgan holda to'siqsiz moslashtirilgan ta'lim muhitini yaratish, ularning jamiyatga samarali moslashuvi hamda to'laqonli uyg'unlashuviga xizmat qiladigan sifatli ta'lim berishni ta'minlashdan iborat

**Inklyuziv ta'limning vazifalari** quyidagilardan iborat:

- rivojlanishning turli imkoniyatlariga ega bo‘lgan o‘quvchilar uchun har qanday kamsitilishni istisno qiladigan, barcha bolalarga teng munosabatda bo‘lishni ta‘minlaydigan yagona moslashtirilgan ijtimoiy muhitni yaratish;
- jamoatchilik hamda ta‘lim jarayonining barcha ishtirokchilarida alohida ta‘lim ehtiyojlari bo‘lgan o‘quvchilar muammolariga nisbatan bag‘rikenglik munosabatini shakllantirish;
- ta‘lim jarayonida sog‘lom bolalar bilan bir qatorda alohida ta‘lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarning aqliy va ijtimoiy salohiyatlarini rivojlantirish;
- barcha o‘quvchilar uchun davlat ta‘lim standartlariga muvofiq maktabgacha, umumiy o‘rta, kasb-hunar va oliy ta‘lim dasturlarini o‘zlashtirish uchun imkoniyat yaratish;
- o‘quvchilarning har tomonlama rivojlanishi, emotsional-irodaviy sohasi, bilish faoliyatini faollashtirish, ijtimoiy ko‘nikma va salohiyatini shakllantirish uchun shart-sharoitlar yaratish;
- alohida ta‘lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarni tarbiyalayotgan oilalarga maslahat yordami berish hamda ota-onalarni farzandlariga ta‘lim-tarbiya berish, pedagogik texnologiyalar, ta‘lim-tarbiya metod va vositalarini qo‘llash sohasida xabardorlik darajasini oshirish, ularni psixologik-pedagogik jihatdan qo‘llabquvvatlash.

Inklyuziv ta‘lim jarayonida alohida ta‘lim ehtiyojiga ega bo‘lgan o‘quvchilar sog‘lom bolalar bilan birga bir maktabda, sinfda o‘qitiladi. Imkoniyati cheklangan bolalar maktabga qadam qo‘ygan kunlaridan boshlab alohida qo‘llabquvvatlashga muhtoj bo‘ladilar. Bunday qo‘llab-quvvatlash ularning butun hayotlari davomida zarur hisoblanadi. Shuning uchun ham maktab ta‘limining dastlabki bo‘g‘inlaridan boshlab, bunday o‘quvchilarning ijtimoiy rivojlanishlari uchun qulay shart-sharoit yaratish talab etiladi. Imkoniyati cheklangan o‘quvchilar bilan tashkil etiladigan ta‘lim jarayoni inklyuziv ta‘lim shakllarini aniqlash va uni umumiy ta‘lim jarayoni bilan integratsiyalashni talab etmoqda. Bunday integratsiya ularning o‘zlariga xos bo‘lgan ta‘limiy ehtiyojlariga mos kelishi lozim.

Imkoniyati cheklangan o‘quvchilarning ta‘lim muassasasida o‘qishni davom ettirishlari va faqatgina o‘zlari kabi imkoniyati cheklanganlar muhitida bo‘lishlari ularning rivojlanishlari, ijtimoiylashishlariga salbiy ta‘sir ko‘rsatishi mumkin. O‘quvchilar bir turda bo‘lishi ularning muhitga moslashishlari uchun qulay sharoit yaratadi. Bunday o‘quvchilarning imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda o‘qitish metodlarini ularga moslashtirish, biroq aloqa o‘rnatish sohasida muammolarga ega bo‘lgan o‘quvchilarni ular bilan uyg‘unlashtirish ularning ijtimoiy rivojlanishlariga sharoit yaratmaydi. Imkoniyati cheklangan bolalar boshqa o‘quvchilar bilan bir xildagi xatti-harakatlarni amalga oshirish tajribasiga ega bo‘lishlari kerak.

Imkoniyati cheklangan o‘quvchilarga ta’lim berishning istiqbolli shakllaridan biri ularni guruhlar yoki sinflarga izchil tarzda asta-sekin uyg‘unlashtirishdan iborat. Bunda o‘quvchilarning sinfdoshlari yoki guruhdoshlari bilan aloqa o‘rnata olishlari va o‘qish layoqatlarini hisobga olishlari talab etiladi.

Imkoniyati cheklangan o‘quvchilar taraqqiyotining ko‘lami shu qadar kattaki, ular uchun bir xildagi ta’lim jarayonini tashkil etish imkonsizdir. Bunday sharoitda ko‘plab o‘quvchilar ta’lim jarayoniga qamrab olinmaydi. Imkoniyati cheklangan o‘quvchilar tarkibining turli-tumanligi shuni ko‘rsatadiki, ularga ta’lim berish jarayoni bir qator holatlarni mujassamlashtirishi kerak.

Imkoniyati cheklangan o‘quvchilar ta’limining keng ko‘lamliligi va serqirraliligini hisobga olgan holda umumiy o‘rta ta’lim jarayonini tashkil etish talab qilinadi. Ularda me’yorda rivojlanuvchi tengdoshlari bilan qiyoslagan holda umumiy o‘rta ta’lim jarayonida hayot uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma, malakalarni shakllantirish maqsadga muvofiqdir. O‘quv jarayonida imkoniyati cheklangan o‘quvchilarning pedagogik-psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda bilimlarni taqdim etish asosida o‘z tengdoshlari va yaqinlari bilan birgalikda hayotiy ko‘nikmalarni egallashlari uchun sharoit yaratiladi.

Imkoniyati cheklangan o‘quvchilarga turli variantlarda ta’lim berish uchun qulay sharoit yaratish kerak. Masalan:

O‘quvchining bilimlarni egallash imkoniyatini hisobga olgan holda cheklangan ta’lim beriladi. Bunday ta’limning mazmuni umumiy o‘rta ta’limning mazmuniga muvofiq kelishi kerak. Bunda tengdoshlari orasida hamda ular bilan umumiy tarzda muayyan vaqt davomida o‘qitish amalga oshiriladi. Bu jarayonda o‘quvchilarni tizimli tarzda pedagogik-psixologik qo‘llab-quvatlash talab etiladi. Mazkur yo‘nalishda o‘quvchilar o‘z tengdoshlari orasida bo‘lib, ular uchun cheklangan ta’lim olish imkoniyati yaratiladi. Bunda ularning rivojlanishi bilan bog‘liq holda kelib chiqqan muammolarni bartaraf etish nazarda tutiladi. O‘quv jarayoni va sinf xonasidagi shart-sharoitlar imkoniyati cheklangan o‘quvchilarning ehtiyojlariga muvofiq kelishi lozim. Bunday sharoitda ta’lim jarayoni individuallashtirilgan, uning muddatlari esa cho‘zilgan bo‘ladi. Jumladan, ko‘zi ojiz o‘quvchilar uchun to‘qqiz yillik umumiy o‘rta ta’lim jarayoni o‘n yil davom etishi mumkin. Masalan, tayanch harakat a‘zolarida nuqsoni bo‘lgan o‘quvchilar uchun boshlang‘ich ta’limning maqbul varianti sifatida umumiy o‘rta ta’lim dasturlari yoki ruhiy jihatdan cheklangan o‘quvchilar uchun tuzilgan maxsus dasturlar yordamida amalga oshiriladi. Integratsiyaning bunday shakli samarali bo‘lib, imkoniyati cheklangan bolalarga ta’lim berishda qiyoslash imkoniyati vujudga keladi. Bunda o‘quvchilarning nutqi, muloqot imkoniyatlari, xatti-harakatlaridagi muammolar tengdoshlariniki bilan solishtiriladi. Ruhiy jihatdan orqada qolayotgan imkoniyati cheklangan o‘quvchilardagi murakkab holatlar bilan oddiy holatlar orasidagi darajalanish sog‘lom sinfdoshlarinikiga ko‘ra boshqacha ko‘rinishga

ega bo‘ladi. Shuning uchun ham o‘quv jarayonida bunday o‘quvchilar sinfdoshlaridan orqada qolishi yoki ulardan o‘zib ketishi mumkin. Bu o‘z navbatida o‘quv dasturlariga o‘zgartirishlar kiritish, o‘quvchilarga korreksion yordam ko‘rsatish, intellektual yuklamalarni ko‘paytirish, ularning imkoniyatlarini cheklamagan holda dastur doirasidan tashqariga chiqishni taqozo qiladi.

### XULOSA

Imkoniyati cheklanmagan bolalar uchun inklyuziv ta‘lim berish rivojlanishida muammolar mavjud bo‘lgan o‘quvchilarni o‘z tengdoshlari bilan birgalikda o‘qitishni nazarda tutar ekan, mazkur yo‘nalish aksariyat bolalar uchun umumiy o‘rta ta‘lim maktablarida jismoniy va aqliy rivojlanishda orqada qolgan o‘quvchilar uchun maxsus sinflar ochish imkonini beradi. Bunday o‘quvchilarga muvaffaqiyatli ta‘lim berish uchun mohirlik bilan tashkil etilgan maxsus pedagogik-psixologik qo‘llab-quvvatlash hamda ularni integrallashtirilgan sinflardagi o‘quvchilar sonini keskin kamaytirish talab etiladi. Inklyuziv ta‘limning ushbu varianti individual tarzdagi yakuniy natijalarni qo‘lga kiritishni taqozo qiladi. Mamlakatimizda inklyuziv ta‘limni ta‘lim oluvchilarning ijtimoiy ehtiyojlari va shaxsiy manfaatlaridan kelib chiqqan holda, fan, ta‘lim va ishlab chiqarishning mustahkam integratsiyasini ta‘minlash asosida tashkil etishning huquqiy me‘yorlari ishlab chiqilgan.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. ABDULATIF, RAXIMOVA XURSHIDAXON SADIKOVNA ABDUHALIMOVA ZULXUMOR, RAVSHANOVA DURDONAXON
2. DILMUROD QIZI QIZI, and RO‘ZIYEVA UMIDAXON MUZAFFAR QIZI. "PRINCIPLES OF INCLUSIVE EDUCATION." *Confrencea* 5.05 (2023): 278282.
3. Raximova, Xurshidaxon. "NATIONAL AND FOREIGN ADVANCED TRENDS IN HIGHER EDUCATION EFFICIENCY IMPROVEMENT." *JOURNAL OF NORTHEASTERN UNIVERSITY* (2022).
4. Almagul, Kalykbayeva, and Rakhimova Khurshidaxon Sadikovna. "PRELIMINARY CONSIDERATIONS ABOUT CHILDREN IN NEED OF SPECIAL HELP." *Academia Science Repository* 4.7 (2023): 35-39.
5. Usmonalievna, Matmusaeva Nigora, and Raximova Xurshidaxon Sadikovna. "IMKONIYATI CHEKLANGAN BOLALARNI INKLYUZIV TA‘LIMGA JALB ETISH." *QO‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI* (2023): 844-846.
6. Sadikovna, PhD Rakhimova Khurshidaxon, and Nabiyeva Umidakhan. "ORGANIZING SOCIAL WORK ACTIVITIES OF STUDENTS WITH HEARING PROBLEMS." (2023).
7. Ziyonet